

NEMIS TILIDA ILOVA KONSTRUKSIYASINING O'RNI VA UNING NEMIS TILSHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI

Raximov M.R.¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada ilova hodisasini o'rganish jarayonida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar, jumladan bir qator tilshunos olimlarning fikr - mulohazalari bilan atroflicha tanishish, hozirgi kungacha to'lig'icha tadqiq qilinmagan dolzarb mavzulardan biri ekanligini batafsil ilmiy manbalarga tayangan holda yoritilgan. Shu bilan birga ilova hodisasi va ilova elementlarining bugungi kundagi dolzarb mavzu sifatida tadqiq etilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Key words: og'zaki va yozma nutq, ilova hodisa, ilova element, qo'shimcha qilingan, sintaktik butunlik, strukturaviy tuzulish, kommunikativ nutq birliklari, lingvistik hodisa, og'zaki va yozma nutq.

Har bir tilda bo'lgani kabi nemis tilining grammatik tushunchalaridan biri hisoblangan ilovali bog'lanishlarga asoslangan murakkab sintaktik butunlik o'zining tuzilishi jihatdan shakllanishi bilan tizma va parallel murakkab sintaktik butunlikdan farq qiladi. Bu farq eng avvalo, asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning ohangi tugallikka ega bo'lishligi bilan farqlanadi va yozma nutqda "nuqta" tinish belgisi qo'yish bilan ifodalanishini biz bir qator tilshunos olimlarning tadqiqotlari misolida oldingi maqolalarimizda aytib o'tgan edik.

Shu o'rinda, ularning o'ziga xos xususiyatlarining bir xil emasligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish maqsadida boshqa tilshunos olimlarning ilova konstruksiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlarning xulosalari bilan tanishib, ularning ushbu mavzu bo'yicha keltirgan fikr-mulohazalarini tahlil qilamiz.

Taniqli tilshunos olim G.V.Kolshanskiy ajratilgan gap bo'laklarining grammatik funksiyalari haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Ajratish hodisasi kengroq ma'noda, ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar torroq ma'noda, g'arb tilshunoslik fanida ham hozirgi kungacha o'z yechimini topmagan. Ular gapning ilovali elementlari deganda, ko'pincha, ikkinchi darajali predikatsiyani, erkinroq xarakterga ega bo'lgan izohli ilovali elementlarni tushunganligini alohida ta'kidlash lozim" [Кротович Е.В. Обособление второстепенных членов предложения в современном русском языке. – Алма-Ата, 1941]. G.V.Kolshanskiyning keltirgan bu fikrni germanshunos olim L.P.Nesterova tomonidan atributivli ilovali elementlarning intonatsiyasini o'rganish jarayonida yanada kengroq fikr-mulohazalar bilan aniqlashtiriladi: "Nemis tilida mazkur ajratish hodisasi sohasiga oid ilmiy-tadqiqot asarlarida uning intonatsiyasini o'rganishga bag'ishlangan maxsus izlanishlar yo'q. Nemis tilshunoslarining ilmiy-tadqiqot ishlarida ajratilgan gap bo'laklarini faqat izohlovchili ilovali elementlar haqidagi ilmiy-maqolalar bilan tanishish mumkin xolos" [Нестерова Л.Ю. Структурно-семантические и функциональные свойства фразеологизмов предикативной семантики: Автореф. дисс... канд. филол. наук. Л.Ю. Нестерова.– Челябинск, 1999].

Ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning og'zaki va yozma nutqdagi farqini aniqlashda ko'plab tilshunos olim va tadqiqotchilarnig ilmiy tadqiqotlaridan foydalangan holda quyidagi fikrlarni ko'rsatish mumkin; Og'zaki nutqda ajratish hodisasi (ilova hodisasi) yozma nutqqa qaraganda ko'p ishlatiladi, chunki u gapirish paytida qo'shimcha vazifani bajarib kelishi mumkin. Bundan shuni tushunish mumkinki, yozma nutqda maxsus gap tuzilishi qoidasiga rioya qilish talab qilinadi. Gap tarkibidagi iboralarni o'z o'rnidan boshqa o'rinda ishlatilishi, ba'zi ma'lumotlarni hissiy ta'kidlanishiga xizmat qiladi.

Taniqli nemis tilshunos olimi K. Dudenning "Grammatik der deutschen Gegenwartssprache" nomli o'quv qo'llanmasida ajratilgan gap bo'laklari to'g'risida quyidagicha fikr bildirilgan: "Ajratilgan gap bo'laklarining ta'sirida ba'zi bir so'z turkumlari o'rtasida sintaktik aloqalarning uzilishi paydo bo'ladi va buning natijasida ular ma'lum bo'lakka nisbatan "kiritma" yoki "qo'shimcha" ilova komponentlar funksiyasida kela olishi mumkin. Ular ma'lum bo'laklardan vergul bilan ajraladi" [Duden Die Grammatik. Band 4 -7. Auflage. Dudenverlag. Mannheim. 2006.].

Hozirgi zamon nemis tilshunosligida ajratish va ilova hodisasiga bag'ishlangan rus tilshunos olimlarining ilmiy ishlarida ham ajratish hodisasi va uning ayrim strukturaviy guruhlarining (ilovali elementlar) matn doirasida yoyilish darajasi to'g'risidagi fikrlari har xil ekanligini ko'ramiz. Shu jihatdan, L.V.Zinder va T.V.Stroyevalarning "Современный немецкий язык" nomli monografiyasida ajratish hodisasi, ilova hodisasi to'g'risida quyidagi fikr-mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi: "To'ldiruvchilar boshqa ikkinchi darajali

¹ Raximov Mirzali Rabbimovich, (PhD) Samarqand davlat chet tillar instituti

bo'laklarga nisbatan gapning ilovali elementlari funksiyasida kamdan-kam uchraydi" [Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Современный немецкий язык. – М., 1957]. Xuddi shunday fikrni O.I.Brodovichning ajratish hodisasi haqida yozilgan ilmiy ishida ham uchramiz. Ajratish hodisasini ingliz tili materiallari asosida o'rgangan O.I.Brodovich quyidagi fikr mulohazani keltiradi: "To'ldiruvchilar ingliz tilida kamdan-kam hollarda ilovali elementlar funksiyasida ifodalanadi" [Бродович О.И. Обособление компонентов предложений. В кн.: Структурный синтаксис английского языка. – Л., 1972]. Lekin, L.R.Zinder, T.V.Stroyeva va O.I.Brodovichlarning to'ldiruvchilar ajratilgan gap bo'laklari funksiyasida kamdan-kam uchraydi degan xulosalari E.S.Skoblikovanning ilmiy tadqiqot ishida boshqacha ko'rinishda o'z ifodasini topadi. Ilova hodisasini rus tili materiallari asosida o'rganib chiqqan E.S.Skoblikova quyidagicha izohlaydi: "To'ldiruvchilar gap tarkibida bosh gap bo'laklari bilan uzviy bog'langanligi tufayli ajratilgan gap bo'lagi funksiyasida kela olmaydi" [Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис сложного предложения (теоретический курс): учеб. пособие / Е.С.Скобликова. – 3-е изд., испр.и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006.]. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, E.S.Skoblikova E.V.Krotevichning "Обособление второстепенных членов предложения в современном русском языке" nomli monografiyasi bilan tanish bo'lganda, bu xulosani keltirmagan bo'lar edi. E.V.Krotevichning ushbu monografiyasida to'ldiruvchilari ilovali elementlarning leksik-grammatik qo'llanilishi tahliliga e'tibor berilgan [Кротеви́ч Е.В. Обособление второстепенных членов предложения в современном русском языке. – Алма-Ата, 1941].

Gapning ajratilgan bo'laklariga, ilovali elemenlarga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar yirik germanshunos olim V.G.Admoni konsepsiyalarida quyidagi fikrlari bilan mustahkamlanadi: Ajratilgan gap bo'laklari bu "qo'shib yozish yoki qo'shimcha (ilova) qilish" ning mahsulidir. Til unsurlarining qo'shimcha sifatida kiritilishi so'z va so'z birikmalari orasida sintaktik munosabatlarning mavjudligi bilan bog'liq" [Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Л., "Наука" 1973.]. Haqiqatdan ham, sintaktik munosabatlar bor joyda albatta sintaktik o'zgarishlar vujudga keladi. Bunday o'zgarishlar nafaqat ajratilish, ilova qilish jarayoniga, balki ajratilish, qo'shimcha qilinish imkoniga ega bo'lgan gap bo'laklarining matn doirasida yoyilish darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, matn doirasidagi ajratilgan (qo'shimcha qilingan) gap bo'laklarining yoyilish darajasi ham har xil bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, V.G.Admoni tomonidan nemis tili sintaksisi bo'yicha chop etilgan "Введение в синтаксис современного немецкого языка" nomli ilmiy- nazariy monografiyasida nafaqat ajratilgan gap bo'laklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritilgan, shuningdek, qaysi gap bo'laklari ilovali elementlar funksiyasida kela olishi mumkin degan muammoli savolning yechilishiga ham katta yordam beradi. V.G.Admonining fikricha: "Fe'ning tuslanadigan shaklidan tashqari, gapning hamma bo'laklari ajratish hodisasiga uchrashi mumkin" [Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Л., "Наука" 1973.]. V.G.Admonining har qanday gap bo'lagi gapning ilovali elementlari funksiyasida kela oladi degan fikrini isbotlash maqsadida, germanshunos olim E.V.Guliga, M.D.Natansonlarning hammualliflikda chop etgan "Syntax der deutschen Gegenwartssprache" nomli o'quv qo'llanmasida ajratilgan gap bo'laklari haqidagi: "Die abgesonderten Satzabschnitte erfüllen die Funktion eines Satzgliedes und zwar sowohl eines Hauptgliedes als auch eines Nebengliedes; Hauptglieder werden seltener angesondert" [Guliga E.W., Nathanson M.D. Syntax der deutschen Gegenwartssprache. – М.: Просвещение, 1966] degan xulosasini bu yerda keltirish o'rinnidir. E.V.Guliganing mazkur fikri gapning bosh bo'laklari ham ajratilgan gap bo'laklari funksiyasida kela olishini alohida ta'kidlaydi. Mualliflarning ushbu fikrini isbotlash maqsadida quyidagi misollarni keltiramiz:

Die Klein, die machen es gerne [3; S. 83].

Da müssen wir alles erledigen, du und ich [3; S.79].

Shunday qilib, bu yerda misollarda "die Kleine" va "du und ich" ega-ajratilgan (ilova qilingan) gap bo'lagi funksiyasini bajarib kelayapti. Mualliflarning yuqorida keltirgan misollar tahlilidan, barcha gap bo'laklari ham ajratilgan (ilova qilingan) gap bo'laklari funksiyalarida kela olishi mumkin degan xulosasi: birinchidan, shu soha bo'yicha keltirilgan fikr-mulohazalarning qisman o'zgarishiga; ikkinchidan, gapning ilovali elementlarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim muammoli masalalarning to'g'ri yechimi ekanligiga asos bo'la oladi.

Nemis tilshunosligining taniqli vakillari V.G.Admoni va E.V.Guligalar tomonidan keltirilgan bu fikrlarning mohiyati E.I.Shendelsning quyidagi mulohazasi bilan yanada to'ldiriladi: "Ko'pchilik holatda izohlovchilar bitta umumiy so'zga tegishli bo'lib keladi. Bunday hollarda ular uyushiq bo'laklar deb izohlanishi lozim. Agarda umumiy so'z ega shaklida berilgan bo'lsa, unga tegishli bo'lgan uyushiq bo'laklar ham ega sifatida, agar umumiy so'z to'ldiruvchi shaklida ifodalanagan bo'lsa, u unga tegishli bo'lgan uyushiq bo'laklarni to'ldiruvchilar sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir" [Шендельс Е.И. Практическая грамматика немецкого языка: Учебник для институтов и фак.иностр. яз. 3-е изд. исп. Москва. 1988].

V.G.Admoni va E.V.Guligalar tomonidan ajratish (ilova) hodisasi haqida keltirgan fikr-mulohazalari L.R.Zinder va T.V.Stroyevalarning hammualliflikda chop etgan "Современный немецкий язык" nomli monografik asarida ma'lum darajada rivojlantirilgan. Ushbu monografik asarda mualliflar ajratilgan (qo'shimcha

qilingan) gap bo'laklarining o'rganilishiga alohida e'tibor qaratgan. L.R.Zinder va T.V.Stroyevalar nemis tili materiallari asosida ajratish (ilova) hodisasini quyidagicha ta'kidlaydi: "Ikkinchi darajali bo'laklardan birining o'zi bevosita aloqador bo'lgan asosiy komponentga nisbatan tobelik munosabatini yo'qotib, ajralish holatiga uchrashi ajratish (ilova) hodisasi deb ataladi"[Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Современный немецкий язык. – М., 1957], mualliflarning "ajratish", ya'ni "ilova hodisasi"ga bergan bu kabi ta'rifi aniqlovchili ilovali elementlarga bergan ta'rifi bilan mazmunan yanada mustahkamlanganligini ko'rish mumkin

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ilova hodisasini yoki ilova konstruksiyalarni tadqiq etish o'zinini dolzarbligini hali ham yo'qotgani yo'q Bilaks yanada kengroq tadqiq qilishni, ya'ni pragmatik, frazeologik,strukturviy, semnantik va boshqa jihatlari misolida ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rish bu mavzuga yana qaytish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Л., "Наука" 1973. –366 с.
- [2]. Бродович О.И. Обособление компонентов предложений. В кн.: Структурный синтаксис английского языка. – Л., 1972. – С. 65-68.
- [3]. Guliga E.W., Nathanson M.D. Syntax der deutschen Gegenwartssprache. – М.: Просвещение, 1966. – 226 с.
- [4]. Duden Die Grammatik. Band 4 -7. Auflage. Dudenverlag. Mannheim. 2006. –990-993 S.
- [5]. Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Современный немецкий язык. – М., 1957. –240 с.
- [6]. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. 3-е изд. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 176 с
- [7]. Кротович Е.В. Обособление второстепенных членов предложения в современном русском языке. – Алма-Ата, 1941. – 72 с.
- [8]. Нестерова Л.Ю. Структурно-семантические и функциональные свойства фразеологизмов предикативной семантики: Автореф. дисс... канд. филол. наук. Л.Ю. Нестерова.– Челябинск, 1999. – 24 с.
- [9]. Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис сложного предложения (теоретический курс): учеб. пособие / Е.С.Скобликова. – 3-е изд., испр.и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – 264 с.
- [10]. Шендельс Е.И. Практическая грамматика немецкого языка: Учебник для институтов и фак.иностр. яз. 3-е изд. исп. Москва. 1988. –С. 308.
- [11]. Xushnudabonu, S., Abdunazarovich, E. Q., & Abdunazarovich, E. Q. (2025). The functional roles of indefinite pronouns in english sentences. Shokh library